



Received: October 16, 2025
Accepted: December 23, 2025
Available online: December 25, 2025

Ilxomjon Tuxtasinov

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Anorxon Axmedova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

YOZMA TARJIMANI O'QITISHDA ZAMONAVIY METOD VA TEKNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yozma tarjimaning lingvistik va didaktik xususiyatlari, shuningdek, yozma tarjima ko'nikmasini shakllantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik metodlar hamda korpus lingvistikasi asosidagi texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozma tarjima jarayoni faqat matnni bir tildan ikkinchi tilga o'girish bilan cheklanmasdan, balki talabaning analitik tafakkuri, madaniyatlararo kompetensiyasi, janrga xos uslubiy sezgirlik va til birliklarini kontekstual jihatdan to'g'ri tanlash qobiliyatini rivojlantiruvchi murakkab kognitiv faoliyat ekanligi asoslab beriladi.

Maqolada Inductive Translation Method (Induktiv tarjima metodi), Error-Based Teaching Method (xato tahliliga asoslangan metod), Process-Oriented Method (jarayon asosida tarjima metodi), Genre-Based Translation Method (janrga asoslangan tarjima metodi), Problem-Based Translation Method (muammoli vaziyatga asoslangan metod), Task-based Translation Method (vazifaga asoslangan tarjima metodi) hamda Comparative Corpus Translation Method (qiyosiy korpus asosidagi tarjima metodi) kabi zamonaviy metodlarning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ilkhomjon Tukhtasinov

Professor, Doctor of Sciences in Pedagogy (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: rector@uzswlu.uz
ORCID iD: 0000-0002-9099-2220

Anorkhon Akhmedova

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philo-
logical Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
E-mail: anora_axmedova@uzswlu.uz
ORCID iD: 0000-0002-6884-6083

INTEGRATION OF MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN TEACHING TRANSLATION

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the linguistic and didactic features of written translation, as well as the role of modern pedagogical methods and corpus-based technologies in the development and enhancement of written translation skills. The study substantiates that the process of written translation is not limited to the mere transfer of a text from one language to another; rather, it constitutes a complex cognitive activity that fosters students' analytical thinking, intercultural competence, genre-specific stylistic awareness, and the ability to select linguistic units appropriately in accordance with context.

The article examines the theoretical foundations and practical applications of several contemporary approaches, including the Inductive Translation Method, Error-Based Teaching Method, Process-Oriented Method, Genre-Based Translation Method, Problem-Based Translation Method, Task-based Translation Method, and the Comparative Corpus Translation Method. It is demonstrated that each of these methods contributes to the development of students' independent thinking, error-analysis skills, conscious selection of translation strategies, and empirical verification of linguistic choices.

The research findings indicate that a corpus-

Ushbu metodlarning har biri yozma tarjimaning muayyan bosqichida talabaning mustaqil fikrlashi, xatolar ustida ishlashi, tarjima strategiyalarini ongli ravishda tanlashi va til birliklarini empirik ma'lumotlar asosida tekshirishi uchun xizmat qilishi ko'rsatib beriladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar bilan uyg'unlashtirilgan korpus yondashuvi yozma tarjima ta'limining samaradorligini oshiradi, chunki u talabalarga real til materiallari asosida tahlil qilish, qiyoslash va xulosa chiqarish imkonini beradi. Natijada yozma tarjima jarayoni ilmiy asoslangan, tizimli va amaliy jihatdan mazmunli tarzda tashkil etilib, talabalarda barqaror tarjima kompetensiyasining shakllanishiga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: yozma tarjima, tarjima kompetensiyasi, korpus lingvistikasi, raqamli texnologiyalar, parallel korpus, elektron resurslar, avtomatik tarjima, interaktiv metodlar.

KIRISH

Zamonaviy metod va texnologiyalar, ayniqsa korpus lingvistikasi asosidagi yondashuvlar yozma tarjimani o'qitishda didaktik asos sifatida yuqori samaradorlikka ega bo'lib, tarjimon mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, yozma tarjima jarayoni endilikda faqatgina til bilish va lug'at boyligiga emas, balki zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ham bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Bugungi ta'lim jarayonida tarjima mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, ayniqsa yozma tarjima ko'nikmalarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar, elektron korpuslar, avtomatik tarjima platformalari va tilni korpus asosida tahlil qilish vositalarining o'рни alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik metodlar, masalan, konstruktiv yondashuv, loyiha asosida o'qitish, muammoli va interaktiv usullar, yozma tarjima darslariga uyg'unlashtirilganda, talabalarda nafaqat tarjima mahoratini, balki tanqidiy fikrlash, intertekstual tahlil, uslubiy farqlarga e'tibor qaratish va kontekstda mos sinonim tanlash kabi yuqori darajadagi akademik kompetensiyalarni takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, yozma tarjimani o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi vositalar, avtomatik korpuslar, qiyosiy tahlil dasturlari (Sketch Engine, AntConc, Parallel Corpus)dan foydalanish tarjima jarayonini ilmiy asosda samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Yurtimizda chet tillarini o'qitish masalalari J.J. Jalolov [Jalolov, 2012], G.X. Bakiyeva [Bakiyeva, 2012], L.T. Axmedova [Axmedova, 2013], T.K. Sattarov [Sattarov, 2000], D.U. Xoshimova [Xoshimova, 2007], F.M. Rashidova [Rashidova, 2017] kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan. Tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha tadqiqotlari borasida G'. Salomov [Salomov, 1966] tarjima jarayonining bosqichlari, lingvistik transformatsiyalar (grammatik va leksik o'zgarishlar),

based approach integrated with interactive teaching methods significantly enhances the effectiveness of written translation instruction, as it enables students to analyze, compare, and draw conclusions based on authentic language data. As a result, the written translation process is organized in a scientifically grounded, systematic, and practice-oriented manner, thereby creating favorable conditions for the formation of stable and sustainable translation competence among learners.

Key words: written translation, translation competence, corpus linguistics, digital technologies, parallel corpus, electronic resources, machine translation, interactive methods.

ekvivalentlik tushunchasi va uning bosqichlari, kontekst va semantikaning tarjima-dagi roli haqida, Q.Musayev [Musayev, 1967] tarjimaning funksional turlari (matbuot, badiiy, ilmiy, rasmiy), tarjimada ekvivalentlik, muqobillik va sinonimiya masalalari, o'qitishda tarjima materiallari tanlash prinsiplari, tarjimada pragmatik yondashuvni qo'llash usullari xususida, O.Muminov [Muminov, 2008] tarjima va tilshunoslik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tarjimaning funksional adekvatligi va matn tipologiyasi, stilistik muvofiqlik, so'z birikmalari va idiomatik ifodalarning tarjimasi, tarjimaning nazariy modellarini amaliy qo'llashga oid bir qancha misollar orqali tushunchalar began, N. Qambarov [Qambarov, 2014] madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima etikasi, tarjima transformatsiyalari borasida, Y.Po'latov [Po'latov, 1967] tarjima metodikasining zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi, kasbiy kompetensiya va tarjimon etikasi, R.Fayzullayeva [Fayzullayeva, 1972] tarjimada uslub, registr va konnotatsiyaning tahlili, tarjima ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv texnologiyalarning roli, lingvistik va madaniy interferensiyani kamaytirish yo'llari haqida tadqiqotlar olib borgan.

Tarjima o'qitish metodologiyasi borasida I.M. Tuxtasinov [Tuxtasinov, 2018] tarjimon tayyorlash, ekvivalentlik va gender aspektlari yuzasidan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqqan, U.R. Yo'ldoshev [Yo'ldoshev, 2024] badiiy tarjima mutaxassisligi talabalariga badiiy (nasriy) tarjimani o'qitishning lingvistik va metodik asoslarini takomillashtirishga oid o'z taklif va tavsiyalarni ishlab chiqqan, E.M. Erkayev [Erkayev, 2008] tarjima mashqlarining pedagogik tasnifi va metodik ishlanmalarini jamlagan, J.R. Abdug'aniyeva [Abdug'aniyeva, 2020] ketma-ket tarjimada uchravchi muammolar ustida izlanish olib borgan, E.R.Kubedinova [Kubedinova, 2022] og'zaki tarjimada qo'llanilishi mumkin bo'lgan mashqlar tizimini ishlab chiqqan.

Korpusga asoslangan tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar bugungi kunda xalqaro miqyosda keng miqyosda olib borilmoqda. Jahon miqyosida korpusga asoslangan tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ilmiy izlanishlar M.Baker, S.Laviosa, A.Sedov, E.Atvell, L.Antoni, A.Baranov, G.Sidorov [Baker 1992, 1998, 2006; Laviosa 2002, 2017, 2020; Sedov 2013; Atvell 2008; Antoni 2005; Baranov 1998] kabi nufuzli tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovda o'rganilgan va rivojlantirilgan. Ularning ishlari korpus lingvistikasini tarjima tahliliga tatbiq qilish, korpus asosidagi stilistik va pragmatik xususiyatlarni aniqlash hamda tarjima qarorlarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida ham mazkur yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lib, N.Abdurahmonova [Abdurahmonova, 2018, 2019, 2020] O'zbekistonda mashina tarjimasi va kompyuter lingvistikasining rivojlanishida muhim o'rin tutgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari asosan O'zbek tilining elektron korpusi, avtomatik tarjima tizimlari, kompyuterda tilni qayta ishlash va lingvistik ta'minot modellarini yaratishga qaratilgan. N.Abdurahmonovanning ishlari tarjima jarayonida kompyuter lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanishni takomillashtirish, xususan, til birliklarini avtomatik aniqlash va analiz qilishga qaratilgan., G.Ergasheva [Ergasheva, 2018], N.Atabayev [Atabayev, 2020] ilmiy izlanishlari milliy korpuslar asosida tarjima amaliyotini

rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODLARI

Zamonaviy metod va texnologiyalar, ayniqsa korpus lingvistikasi asosidagi yondashuvlar yozma tarjimani o'qitishda didaktik asos sifatida yuqori samaradorlikka ega bo'lib, tarjimon mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, yozma tarjima jarayoni endilikda faqatgina til bilish va lug'at boyligiga emas, balki zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ham bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Bugungi ta'lim jarayonida tarjima mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, ayniqsa yozma tarjima ko'nikmalarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar, elektron korpuslar, avtomatik tarjima platformalari va tilni korpus asosida tahlil qilish vositalarining o'zni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, yozma tarjimani o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi vositalar, avtomatik korpuslar, qiyosiy tahlil dasturlari (Sketch Engine, AntConc, Parallel Corpus) dan foydalanish tarjima jarayonini ilmiy asosda samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida yozma tarjimani o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy metodlarni ikki turga bo'lishni taklif etdik. Quyidagi jadvalda ushbu turlar tavsifi berib o'tildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Yozma tarjima o'qitishning zamonaviy metodlari

Yozma tarjimani o'qitish metodlari	Yozma tarjimani korpusga asoslangan holda o'qitish metodlari	Izoh
Inductive Translation Method (ITM) (Induktiv tarjima metodi)	Comparative Corpus Translation Method (Qiyosiy korpus asosidagi tarjima metodi)	Induktiv metodda talabalar misollar asosida umumiy qoidani o'zlari chiqaradilar. Korpusga asoslangan qiyosiy metod esa bir nechta tarjima variantlarini korpus orqali tahlil qilishni o'rgatadi.
Error-Based Teaching Method (Xato tahliliga asoslangan metod)	Corpus-Informed Translation Teaching Method (Korpus ma'lumotlariga asoslangan tarjima o'qitish metodi)	Xatolarni tahlil qilib o'rganish o'quvchilarni ehtiyotkorlikka o'rgatadi. Korpusga asoslangan metod esa real til ma'lumotlari asosida to'g'ri variantni tanlashni o'rgatadi.
Process-Oriented Method (Jarayon asosida tarjima metodi)	Frequency-Based Lexical Choice Method (So'z tanlashda chastotaga asoslangan metod)	Jarayon metodida tarjima bosqichma-bosqich (o'qish, tahlil, tarjima, tahrir) o'rganiladi. Korpus metodida esa eng ko'p ishlatiladigan leksik birliklar asosida tarjima variantlari tanlanadi.
Genre-Based Translation Method (Janrga asoslangan tarjima metodi)	Corpus Annotation and Alignment Method (Korpusni izohlash va moslashtirish metodi)	Har bir janrga mos til va stilistik uslublarni o'rgatadi. Korpusda esa matn segmentlari tarjimasi bilan birga moslashtirilib, strukturaviy tahlil qilinadi.

Problem-Based Translation Method (Muammoli vaziyatga asoslangan metod)		Real tarjima muammolarini yechishga qaratilgan, masalan, madaniy ekvivalent topish. Bu metod korpusga tayanuvchi emas, ammo u bilan uyg'unlashtirilsa samarador bo'ladi.
Task-based translation method (Vazifaga asoslangan tarjima metodi)		Har bir dars amaliy vazifaga asoslanadi (maqola tarjimasi, reklama tarjimasi). Korpus metodlari bu vazifalarni yanada asosli bajarishga yordam beradi.

Mazkur jadvalda yozma tarjimani o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar tizimli ravishda ikki asosiy guruhga ajratilgan: an'anaviy (korpusdan mustaqil) pedagogik metodlar va yozma tarjimani korpusga asoslangan holda o'qitish metodlari. Bunday tasnif yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirish jarayonida turli metodlarning funksional vazifalarini aniqlash va ularning didaktik imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Jadvalning birinchi ustunida keltirilgan metodlar (Inductive Translation Method, Error-Based Teaching Method, Process-Oriented Method, Genre-Based Translation Method, Problem-Based Translation Method, Task-based Translation Method) asosan talabaning kognitiv faoliyatini faollashtirishga, tarjima jarayonini anglashga, xatolar ustida ishlashga, janr va uslub xususiyatlarini idrok etishga hamda real vazifalar asosida tarjima qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu metodlar orqali talabalar tarjima jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtiradi, tarjima strategiyalarini ongli tanlash va mustaqil qaror qabul qilish malakalarini egallaydi.

Jadvalning ikkinchi ustunida esa yozma tarjimani korpusga asoslangan holda o'qitishga xizmat qiluvchi metodlar (Comparative Corpus Translation Method, Corpus-Informed Translation Teaching Method, Frequency-Based Lexical Choice Method, Corpus Annotation and Alignment Method) aks ettirilgan. Bu metodlar real til materiallari, parallel va qiyosiy korpuslar asosida tarjima variantlarini empirik va statistik jihatdan tahlil qilishga imkon beradi. Korpusga asoslangan yondashuv talabalarni autentik til muhitiga yaqinlashtirib, leksik birliklarning qo'llanish chastotasi, kontekstual mosligi va tarjima variantlarining asoslanganligini aniqlashga yordam beradi. Jadvalda berilgan izohlar har bir metodning didaktik vazifasi va tarjima kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rnini ochib beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, an'anaviy va korpusga asoslangan metodlarni integratsiyalash yozma tarjima ta'limining samaradorligini oshiradi hamda talabalarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda empirik tahlilga tayangan barqaror tarjima ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Induktiv metod ta'lim jarayonida umumiy qoidalarni o'qituvchidan emas, balki talabaning o'zi tomonidan misollar asosida mustaqil kashf qilish tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuv tarjima o'qitish sohasida ham o'z ifodasini topib, induktiv tarjima metodi sifatida shakllangan. **Induktiv tarjima metodi** – bu o'quvchilarga avval real tarjima misollarini taqdim etish, so'ngra ularni tahlil qilib, o'xshashliklar, tafovutlar, semantik va stilistik nuqtai nazardan qoida va qonuniyatlarni o'zlari

aniqlashga imkon beradigan metod hisoblanadi. Bu metod an'anaviy deduktiv yondashuvdan farqli ravishda talabani passiv qabul qiluvchidan faol tahlil qiluvchiga aylantiradi.

Amerikalik psixolog va ta'lim metodologi J. Bruner konstruktivistik yondashuv tarafdori sifatida shunday deydi: "Agar o'quvchi o'zi kashf etgan qoida asosida bilimga ega bo'lsa, u bilim yanada barqaror, chuqur va uzviy bo'ladi" [Bruner, 1961]. Uning "o'rgatishni o'rganish" konsepsiyasida induktiv yondashuv orqali bilimni kashf qilish (discovery learning) markaziy o'rinni egallaydi. Induktiv tarjima metodida ham tarjima qoidasi talaba tomonidan real misollar asosida kashf etiladi.

Konstruktivistik yondashuv – bu ta'lim jarayonida bilim tayyor holatda berilmasdan, balki o'quvchining faol kognitiv faoliyati, avvalgi tajribasi va real muammolar bilan o'zaro aloqasi jarayonida mustaqil ravishda shakllantirilishini asoslovchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilim tashqi manbadan passiv qabul qilinadigan axborot emas, balki o'quvchining tahlil qilish, qiyoslash, tajriba o'tkazish va xulosa chiqarish jarayonida "quriladigan" intellektual mahsulot hisoblanadi. Konstruktivistik yondashuvda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki o'quv faoliyatini yo'naltiruvchi, muammoli vaziyatlar yaratuvchi va refleksiyaning rag'batlantiruvchi fasilitator sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi esa ta'lim jarayonining markaziy subyekti bo'lib, u mustaqil qaror qabul qilish, bilimni shaxsiy tajribasi bilan bog'lash va uni yangi vaziyatlarda qo'llash orqali o'z kompetensiyalarini rivojlantiradi. Yozma tarjimani o'qitish jarayonida konstruktivistik yondashuv talabalarni autentik matnlar bilan ishlashga, tarjima muammolarini mustaqil aniqlashga, turli tarjima variantlarini qiyosiy tahlil qilishga va empirik dalillar asosida optimal yechimlarni tanlashga undaydi. Ayniqsa, korpus lingvistikasi vositalari bilan uyg'unlashgan konstruktivistik yondashuv talabalar uchun real til ma'lumotlari asosida bilimni "kashf etish" imkonini yaratib, yozma tarjima kompetensiyasining barqaror va ongli shakllanishiga xizmat qiladi.


R. Ellisning fikricha esa, "tarjima o'rgatishda talabalar ayrim so'z birikmalari yoki tarjima variantlarini kontekstda mustaqil kuzatib, shunga mos ekvivalent va struktura tuzishga harakat qiladilar" [Ellis, 2003]. Bu jarayon induktiv o'rgatishning tarjimashunoslikdagi ifodasidir.

Induktiv tarjima metodi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (1-rasmga qarang):

ITM metodining afzalliklari quyidagicha: tarjimonlikda tahliliy fikrlash va kontekstni tushunish ko'nikmasini kuchaytiradi, qoidani o'zlashtirish sun'iy emas, tabiiy va barqaror shaklda yuz beradi hamda talabaning mustaqil tarjimon sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi.

ITM metodining qo'llanilishi

Zamonaviy tarjima didaktikasida o'quvchilarning tarjima faoliyati davomida yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash, tahlil qilish va ulardan o'rganishga asoslangan metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday yondashuvlardan biri bu **Xato tahliliga asoslangan metod (Error-Based Teaching Method)** bo'lib, u o'rganuvchi faoliyatida uchraydigan xatolarni pedagogik imkoniyat sifatida qabul qiladi. Mazkur



metod konstruktivizm, interaktiv o'qitish, va psixolingvistik fikrlash mexanizmlariga asoslanadi. Bu yondashuvda asosiy maqsad xatoni aniqlash emas, balki o'rganish vositasi sifatida ko'rish va o'quvchining tarjima ko'nikmalarini chuqurlashtirishdir.


NATIJALAR

Til xatolarini tahlil qilish metodining asoschilaridan biri britaniyalik olim S.P.Corder hisoblanadi. S.P.Corderning tadqiqotlariga ko'ra, "xatolarni tahlil qilish orqali nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchi ham o'z metodik faoliyatini takomillashtiradi" [Corder, 1967]. Tarjima kontekstida bu xatolar leksik, grammatik, stilistik va pragmatik bo'lishi mumkin.

Tanqidiy tahlil va tarjima didaktikasi sohasida mashhur olim K. James xatolarni o'rgatishda quyidagicha izohlaydi: "Xatolar – bu o'zini tahlil qilish va tilni chuqurroq o'zlashtirishga olib boruvchi reflektiv jarayonning boshlang'ich nuqtasidir" [James, 1998]. K. Jamesning ta'kidlashicha, xatolar ustida ishlash bu metakognitiv kompetensiyani takomillashtirish vositasi bo'lib, o'quvchining tilga va tarjimaga ongli yondashuvini rivojlantiradi.

"Error-Based Teaching Method" o'z mohiyatiga ko'ra, tarjimada yo'l qo'yilgan xatolarni quyidagicha pedagogik jarayonga aylantiradi (2-rasmga qarang):

2-rasm.

“Error-Based Teaching Method (ERTM)” metodologik jarayon sifatida

Ushbu metod bir qancha afzalliklarga ega bo'lib, ular: o'quvchi xatoni tan olish va tuzatish madaniyatini o'zlashtiradi. Tahliliy va metakognitiv tafakkur shakllanadi va tarjima sifati stilistik, semantik va grammatik darajalarda ortadi.

Yozma tarjimani samarali o'rgatishda faqat yakuniy natija (ya'ni tayyor tarjima matni) emas, balki unga olib kelgan jarayonni o'rganish ham muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan **Process-Oriented Method (POM-Jarayon asosida tarjima metodi)** tarjima faoliyatining ichki bosqichlarini tahlil qilish, bosqichma-bosqich anglash va har bir bosqichda ongli qaror qabul qilishga yo'naltirilgan metoddir.

Mashhur tarjimashunos olim D.Gile tarjima jarayonini kognitiv kompleks tizim sifatida tahlil qiladi. U o'zining “Effort Model” konsepsiyasida tarjimani quyidagicha ta'riflaydi: “Tarjima bu natija emas, balki qarorlar, fikrlar va tahlillar zanjiridan iborat murakkab jarayondir” [Gile, 1995] (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Jarayon asosida tarjima metodining bosqichlari

№	Bosqich	Tavsifi
1	Tushunish bosqichi	Asl matnni o'qish, semantik va pragmatik jihatdan anglash.
2	Tahlil bosqichi	Til birliklari, grammatik struktura, konnotatsiyalarni aniqlash.
3	Ekvivalent izlash bosqichi	So'z va iboralar uchun mos tarjima variantlarini izlash.
4	Qaror qabul qilish bosqichi	Kontekst va uslubga mos variantni tanlash.
5	Tahrir va tekshiruv bosqichi	Tarjimani yaxlit holda o'qib, uslubiy va grammatik xatolarni tuza-tish.
6	Refleksiya bosqichi	Nima uchun shu variant tanlandi? Qanday muammolar bo'ldi? Qan-day o'zgarishlar kiritildi?

Bu metodning afzalliklari quyidagicha:

- Talabalar tarjimaga ongli, tahliliy va reflektiv yondashishni o'rganadilar.
- Tarjima sifatini takomillashtirishda kognitiv va metakognitiv ko'nikmalar rivojlanadi.
- Har bir qarorning sababi va natijasi tahlil qilinadi, bu esa mustaqil tarjimonlik kompetensiyasini kuchaytiradi.


Genre-Based Translation Method (GBTM- Janrga asoslangan tarjima metodi) – bu tarjima ta’limida matnning tarkibiy, uslubiy va kommunikativ xususiyatlarini uning janriga ko‘ra aniqlash va tarjimaga shu asosda yondashishni nazarda tutuvchi metoddir. Bu yondashuvda tarjima faqat til birliklari darajasida emas, balki janrning nutqiy niyati, konvensiyalari, uslubiy registrlari va diskurs funksiyalari asosida amalga oshiriladi. Mazkur metod funksional lingvistika, diskurs tahlili, hamda kontekstual pragmatika asosida shakllangan bo‘lib, tarjimada shakl emas, maqsadli kommunikatsiyani ustuvor deb biladi.

Tarjima nazariyotchisi Ch.Nord funksionallik yondashuv asosida shunday deydi: “Tarjima matnning shaklini emas, uning funksiyasini, vazifasini yangi madaniyatda qayta tiklashdir” [Nord, 1997]. Nord janrga asoslangan metodni maqsadga yo‘naltirilgan tarjima deb hisoblab, har bir matnning muloqot shakli, adresati va nutq uslubini tahlil qilishni taklif qiladi. Janrga asoslangan tarjima metodi shundan iboratki, talabalar tarjima qilishdan oldin matnning:

1. Janr xususiyatlarini (strukturasi, uzunligi, stilistik o‘ziga xoslik)
2. Maqsadli auditoriyasini
3. Kommunikativ vazifasini
4. Til va uslub darajasini aniqlab, tarjimani shu asosda amalga oshiradilar (3-rasmga qarang):

3-rasm.

“Genre-Based Translation Method”ning qo‘llanilish bosqichlari



“Genre-Based Translation Method” ning afzalliklari:

- talabalar janrlararo tafovutni sezish va stilistik moslikni saqlashni o‘rganadilar;
- tarjima maqsadga yo‘naltirilgan va funksional mos bo‘ladi;

– madaniy va kommunikativ konvensiyalarni hisobga olish ko‘nikmasi shakllanadi.

MUNOZARA

Problem-Based Translation Method (PBTM) – bu o‘quvchilarni tarjima jarayonida yuzaga keladigan haqiqiy muammoli holatlar asosida o‘qitishga yo‘naltirilgan metoddir. Ushbu metodda asosiy vazifa tayyor qoidalarni yodlatish emas, balki o‘quvchini kontekstual, madaniy va tilshunoslik muammolarini hal qilishga jalb etishdir. U “muammodan yechimga” tamoyiliga asoslanadi.

Bu metod tarjima faoliyatida baxsli til birliklarini, madaniy realiyalarni, stilistik nomutanosibliklarni aniqlash, tahlil qilish va oqilona yechim topishga qaratilgan. Shu bilan birga, u interaktiv va faol o‘rganishga asoslanadi.

Tarjimashunos olimlar Hatim va Mason tarjima jarayonida “critical incidents” ya’ni hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoli nuqtalar borligini alohida ta’kidlaydilar: “Tarjima bu shunchaki kodni almashtirish emas, balki madaniy va kommunikativ muammolarni hal qilish jarayonidir” [Hatim & Mason, 1990]. Ularning yondashuvida PBTM tarjimonda tanqidiy tahlil, diskurs sezuvchanligi va strategik qaror qabul qilish salohiyatini shakllantiradi (3-jadvalga qarang):

3-jadval


PBTM metodining bosqichlari

№	Bosqich	Tavsifi
1	Muammoni taqdim etish	Tarjimada chalkashlik, madaniy tafovut yoki semantik ikki ma’nodlilikka ega matn tanlanadi.
2	Muammoni aniqlash	O‘quvchilar o‘zlari ushbu muammoni anglaydilar va ifodalaydilar.
3	Muqobil yechimlarni taklif qilish	Bir nechta tarjima variantlari ishlab chiqiladi, har biri asoslanadi.
4	Tanqidiy baholash	Variantlar ustida jamoaviy muhokama olib boriladi: qaysi biri kontekstga mos? nima uchun?
5	Qaror qabul qilish	Eng maqbul tarjima yechimi tanlanadi va yozma shaklga keltiriladi.

Task-Based Translation Method (TBTM) bu TBLTning tarkibiy komponenti bo‘lib, yozma tarjima ko‘nikmalarini amaliy vazifalar orqali takomillashtirishga yo‘naltirilgan metod bo‘lib, asosiy e’tibor tarjima nazariyasini tushuntirishga emas, balki muayyan tarjima topshirig‘i doirasida faoliyat yuritishga, ya’ni “bajarish orqali o‘rganish” tamoyiliga qaratiladi. TBTM tarjimini faqat matn darajasida emas, balki kommunikativ kontekst, ijtimoiy vazifa va maqsadli auditoriya bilan uzviy bog‘liq faoliyat sifatida ko‘radi (4-rasmga qarang):

4-rasm.

“Task-Based Translation Method” ning bosqichlari



Yuqorida biz tahlilga tortgan ushbu metodlar yozma tarjimani o‘qitishda samarali hisoblanib, ularning bosqichlari va mashqlarni integratsiya qilish orqali yozma tarjima ko‘nikmasini takomillashtirishga erishish mumkin. Misol tariqasida **Process-Oriented Translation Method (Jarayon asosida tarjima metodi)** asosida bir mashg‘ulot uchun maxsus mashq namunasi quyida berib o‘tildi. Ushbu mashq kognitiv bosqichlar, refleksiya va qaror asoslashga qaratilgan bo‘lib, talabanning tarjima kompetensiyasini bosqichma-bosqich takomillashtirishga xizmat qiladi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Mashq namunasi (POTM asosida)

EXERCISE NAME: “Step-by-step translation: analysis, decision and reflection”

Students will translate the following English text, but not in a simple way - they will be asked to answer specific questions at each stage and justify their actions based on the process.

Source Text:

“The government has pledged to boost green energy projects, but critics argue that the promises are vague and lack concrete plans”.

Stage 1: Comprehension Stage

Task: *Analyze the content of the sentence. Answer the following questions in writing:*

1. What is the topic of the sentence?
2. What are facts and opinions presented in the sentence?

Stage 2: Analytical Stage

Task: *Analyze the following lexical items in terms of tone, style, and semantics:*

“pledged” – formal or informal?

“boost” – literal or metaphorical?

“vague” and “lack concrete plans” – what is the tone and implied meaning?

Stage 3: Lexical Equivalence Selection

Task: *For each key term below, suggest at least two translation equivalents and explain briefly why:*

“pledged”: “va‘da berdi” / “majburiyat oldi”

“boost”: “rivojlantirish” / “tezlashtirish”

“vague”: “noaniq” / “ancha mavhum”

“lack concrete plans”: “aniq rejalarsiz” / “konkret strategiyaga ega emas”

Stage 4: Drafting the Translation

Task: Use the selected equivalents to draft the full sentence in the target language (e.g., Uzbek, Russian, etc., depending on class context).

Sample Translation (into Uzbek):

“Hukumat yashil energiya loyihalarini rivojlantirishga va‘da berdi, biroq tanqidchilarga ko‘ra, bu va‘dalar noaniq bo‘lib, aniq rejalariga ega emas”.

Stage 5: Editing and Peer Review

Task: Compare your translation with others. Answer the following:

- Which words or phrases aligned well with the source?
- Which parts deviated from the intended meaning or tone?
- What stylistic differences emerged among the variants?

Stage 6: Reflection Stage

Task: Write a short reflection (3–4 sentences) answering:

- What decisions did you make in your translation?
- What challenges did you encounter?
- How will this task influence your future translations?

Mazkur mashq namunasi aynan **Process-Oriented Translation Method** asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalarni tarjima faoliyatining besh muhim komponenti: tushunish, tahlil, qaror qabul qilish, tahrir qilish va refleksiya bosqichlarini izchil bajara olishga o‘rgatadi. Bu esa o‘quvchining tarjimini “tayyor natija” emas, balki ijodiy va kognitiv faoliyat sifatida anglashiga sabab bo‘ladi.

Xususan, matnni semantik va stilistik jihatdan tahlil qilish, murakkab birliklar uchun muqobil ekvivalentlar yaratish, har bir tanlovni asoslash, so‘ngra tahrir va muhokama bosqichida boshqa variantlar bilan tanqidiy taqqoslash bularning barchasi yozma tarjima ko‘nikmasini kontekstual sezuvchanlik, strategik tafakkur va reflektiv yondashuv bilan boyitadi.

Demak, jarayon asosida tarjima qilish metodi o‘z mohiyatiga ko‘ra talabani tarjima faoliyatini chuqur anglashga yo‘naltirsa, uning korpusga asoslangan metodlar bilan integratsiyasi bu jarayonni empirik, izchil va dalillangan holga keltiradi. Natijada, talabalar faqat tarjima qilishni emas, tarjima ustida fikrlash, tahlil qilish va strategik yondashishni chuqur o‘zlashtiradilar.

Tadqiqotimiz davomida yozma tarjimini korpusga asoslangan holda o‘qitish metodlari tahlilga tortildi. **Comparative Corpus Translation Method (Qiyosiy korpus asosidagi tarjima metodi)** tarjima ta‘limida samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy mohiyati parallel korpuslar yordamida bir xil manba matnning turli tarjima variantlarini qiyosiy tahlil qilish va bu asosda tarjima strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur metod funksional tarjima nazariyasi va empirik tarjima tadqiqotlari asosida rivojlangan bo‘lib, talabalarni tarjima qarorlarini statistik va kontekstual asoslangan holda qabul qilishga yo‘naltiradi.

Olim M.Baker fikricha: “Tarjimaning tilshunoslik jihatlarini chuqur anglash uchun parallel matnlar ustida sistematik kuzatuvlar olib borish zarur. Bu tarjimonning

kontekstga mos variantni tanlash salohiyatini oshiradi” [Baker, 1993]. Bu metod, ayniqsa, bir ma’noli iboralar ko‘p ma’noli kontekstlarda qanday tarjima qilinganini solishtirishda, shuningdek, terminologik moslik, stilistik o‘zgarishlar, leksik variantlilikni o‘rganishda beqiyos imkoniyat yaratadi. Ushbu metodning amaliy ahamiyatini ko‘rib chiqish uchun quyidagi **matn-fokusli tahlil namunasi** berib o‘tildi (5-jadvalga qarang):

5-jadval

“Matn-fokusli tahlil” namunasi

Fokus ibora: “Take responsibility”	
<i>Ushbu iboraning o‘zbek tilidagi tarjima variantlarini parallel korpuslar asosida tahlil qilish, stilistik va kontekstual farqlarni aniqlash, har bir variantni tanlashga sabab bo‘lgan omillarni asoslash.</i>	
Matn konteksti (Asl gaplar):	Source Sentence Target Sentence
	The minister must take responsibility for the failure. Vazir bu muvaffaqiyatsizlik uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi kerak.
	It's time we took responsibility for our future. Endi kelajagimiz uchun mas'uliyatni o‘zimiz zimmasiga olishimiz kerak.
	No one wanted to take responsibility for the mistake. Hech kim bu xatoga mas'ul ekanini tan olishni xohlamadi.
Tarjima variantlarining qiyosiy tahlili:	
Tarjima shakli	
Tarjima turi	
Stilistik daraja	
Kontekstga moslik	
Izoh	
1	Javobgarlikni o‘z zimmasiga olish Neytral-rasmiy Rasmiy Yuqori Rasmiy matn, siyosiy kontekstga to‘liq mos keladi
2	Mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish Rag‘batlan-tiruvchi, ijtimoiy Ohangdor Yuqori Ijtimoiy diskursda ishlatiladigan “ownership” tuyg‘usini beradi
3	Mas’ul ekanini tan olish Emotsional Norasmiy O‘rtacha Tan olish komponenti kuchli, lekin ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas

Demak, “Take responsibility” iborasi doimiy semantik yadroga ega bo‘lsa-da, kommunikativ vazifasi kontekstga qarab o‘zgaradi. Rasmiy matnlarda “javobgarlikni zimmasiga olish” yoki “mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olish” afzal ko‘riladi. Ijtimoiy yoki shaxsiy nutqda esa “mas’ul ekanini tan olish” yoki “jiddiy munosabatda bo‘lish” kabi ifodalar qo‘llaniladi. Har bir variant korpus asosida aniqlangan real qo‘llanmalarga tayangan holda tanlangan.

Matn-fokusli tahlil orqali talabalar:

- bitta ibora tarjimasining bir nechta variantini tanqidiy baholashni o‘rganadilar;
- har bir tarjima variantining stilistik ohangini, kontekstual mosligini va pragmatik ta’irini anglaydilar;
- korpusdan olingan dalillar asosida tarjima qarorini asoslash ko‘nikmasini rivojlantiradilar;
- tarjima jarayonini variantli, empirik va reflektiv faoliyat sifatida idrok etadilar.

Korpus ma’lumotlariga asoslangan tarjima o‘qitish metodi (Corpus-Informed Translation Teaching Method) talabalarga tarjimada kontekstga mos variant tanlash, kollokatsion aniqlikni saqlash, stilistik moslikni ta’minlash va tarjima qarorlarini korpus orqali asoslash imkonini beradi. Mazkur metodning ilmiy poydevori korpus lingvistikasi, diskurs tahlili va funksionalist tarjima nazariyalari bilan bog‘liq. U asosan J.Sinclair tomonidan asos solingan data-driven learning (DDL) konsepsiyasi va M.Bakerning tarjima va korpus lingvistikasi bog‘liqligiga oid ishlanmalariga tayangan. “Korpus asosida tarjima o‘rgatish orqali biz talabalarga faqat qoidalarini emas, balki ularning real ishlanish dinamikasini anglatamiz” [Baker, 1996].

Corpus-Informed Translation Teaching Method tarjima ta’limiga haqiqiy til muhitini olib kiradi, matnlar ustida ishlashda lingvistik dalillar asosida qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. U tarjima jarayonini nazariy emas, empirik, intuitiv emas, dalillangan, statik emas, kontekstual va dinamik faoliyat sifatida anglatadi (6-jadvalga qarang):

6-jadval

Korpus ma’lumotlariga asoslangan tarjima o‘qitish metodining bosqichlari

№	Bosqich	Tavsifi	Maqsad
1	Tarjima vazifasini belgilash (Task orientation)	<ul style="list-style-type: none"> – Talabalarga tarjima qilinadigan matn beriladi va vazifa aniq belgilanadi: <ul style="list-style-type: none"> a) matnning janri (ilmiy, ommaviy, rasmiy, reklama) b) auditoriya va kommunikativ maqsad c) tarjimada asosiy muammo kutilayotgan birliklar 	Talabani tarjima jarayoniga ongli tayyorlash.
2	Korpusga kirish va so‘z-birikmalarni ajratish (Corpus exploration)	<ul style="list-style-type: none"> – O‘quvchilar matndagi muhim leksik birliklar yoki iboralarni ajratadi. – Shu birliklar monolingval yoki parallel korpus orqali tahlil qilinadi: <ul style="list-style-type: none"> 1. Kollokatsiyalarni aniqlash 2. Keng tarqalgan qo‘llanma shakllarini ko‘rish 3. Stilistik ohangni kuzatish 	Tilning real ishlatilishini asos sifatida qabul qilish.

3	Tarjima variantlarini ishlab chiqish (Drafting based on data)	<ul style="list-style-type: none"> – Korpusdagi kuzatuvlarga tayangan holda o'quvchilar mos tarjima variantlarini ishlab chiqadi. – Har bir variant kontekst, uslub, va chastota asosida asoslanadi. 	So'z tanlash, uslubiy moslik va kontekstga moslik bo'yicha qaror chiqarish.
4	Taqqoslash va muhokama (Peer comparison and corpus checking)	<ul style="list-style-type: none"> – Talabalar o'z variantlarini bir-biri bilan solishtiradi va tanlangan ifodalarni korpus asosida yana tekshiradi. – O'qituvchi zarur holatda qo'shimcha korpus natijalarini ko'rsatadi. 	Qarorni baholash, muqobil yondashuvlarga ochiqlik.
5	Yakuniy tarjimani tuzish (Final version production)	<ul style="list-style-type: none"> – Tahlil va muhokama asosida talaba tarjimaning yakuniy variantini tuzadi. – Bu variant korpus asosida asoslangan bo'lishi va uslubiy jihatdan mos kelishi lozim. 	Dalillangan, kontekstga mos tarjimani yaratish.

Frequency-Based Lexical Choice Method (FBLChM) – bu tarjima mashg'ulotlarida korpusdagi ishlatilish chastotasi asosida leksik birliklarni tanlash va ularni kontekstda qo'llash strategiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metoddir. "Til birliklarini tanlashda ularning necha marta uchrashi emas, balki qanday kontekstda va qanday kollokatsiyada uchrashi muhim" [Sinclair, 1991] degan savolga javob topiladi. Metodning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- leksik birliklarni tanlashdagi statistikani asoslash (so'zlar kontekstda qanchalik tez-tez uchrashi asosida tanlanadi);
- stilistik moslikni aniqlash (rasmiy, norasmiy, ilmiy yoki publitsistik janrlarda qanday leksik birliklar afzal ekani korpus asosida o'rganiladi);
- kollokatsion tahlil (so'zlar qanday boshqa birliklar bilan tabiiy qo'llanilishi aniqlanadi);
- variantlilikni tahlil qilish (sinonimlar orasida eng muvofiq va tabiiy ishlatiladigan variant aniqlanadi).

Ushbu metod asosida o'qitish bosqichlari esa: *so'z/ibora tanlash, korpus tahlili, statistik taqqoslash, tarjima variantini ishlab chiqish*dan iboratdir (7-jadvalga qarang):

7-jadval

Fokus birlik: "launch" ga namuna

<p>Fokus birlik: "launch"</p> <p>Kontekst: <i>"The government launched a new initiative."</i></p> <p>Korpus natijalari:</p> <p>Most frequent translations: "boshladi", "yo'lga qo'ydi", "ishga tushirdi"</p> <p>Korpus chastotasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> "boshladi" – umumiy va neytral, eng ko'p uchraydi <input type="checkbox"/> "yo'lga qo'ydi" – rasmiy-stilistik kontekstdagi yuqori chastota <input type="checkbox"/> "ishga tushirdi" – texnologik kontekstda ko'proq uchraydi

Frequency-Based Lexical Choice Method yozma tarjima ta'limida leksik

birliklarni tanlash jarayonini ilmiy, empirik va kontekstga mos asosda tashkil etadi. Bu metod orqali talabalar faqat tarjima qilmaydi, ular tarjimani asoslashi, baholashi va strategik tanlov qilishni o'rganadi. Bu metod tarjima ta'limini korpus lingvistikasi bilan boyitilgan zamonaviy yondashuv darajasiga olib chiqadi.

Tarjima ta'limida korpusdan samarali foydalanishning muhim bosqichlaridan biri bu korpusni izohlash (annotation) va moslashtirish (alignment) jarayonlaridir. Bu metod tarjima mashg'ulotlarida original va tarjima matnlar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganish, tarjima uslubini tahlil qilish, ekvivalentlik darajalarini aniqlash va tarjima strategiyalarini o'rgatish uchun xizmat qiladi. **Corpus Annotation and Alignment Method (Korpusni izohlash va moslashtirish metodi)** ning asosida tarjima korpuslarini lingvistik jihatdan izohlash (morfologik, sintaktik, semantik belgilar bilan) va parallel matnlarni satr, gap, ibora darajasida bog'lash yotadi. Ushbu metod ayniqsa kompyuter yordamida tarjima tahlili (CAT tools) va korpus lingvistikasida parallel korpuslar bilan ishlash yondashuvi asosida shakllangan. Ushbu metodga asoslanib o'qitish quyidagi bosqichlardan iboratdir (8-9-jadvallarga qarang):

8-jadval

Corpus Annotation and Alignment Method (Korpusni izohlash va moslashtirish metodi) bosqichlari

Bosqichlar	Faoliyat
1-bosqich: Parallel matn tanlash	Tarjima mashg'ulotlarida foydalanish uchun original va tarjima matnlar (masalan, rasmiy hujjat, maqola, hikoya) tanlanadi.
2-bosqich: Moslashtirish (alignment)	O'qituvchi yoki talaba gaplar darajasida matnlarni juftlaydi. Bu kompyuter dasturlari (Wordfast Align, SDL Trados, LF Aligner) yoki qo'lda ham amalga oshiriladi.
3-bosqich: Izohlash (annotation)	Har bir segmentdagi muhim birliklar (fe'llar, sinonimlar, o'tmish zamon shakllari, metaforalar, intensifikatorlar) teglar orqali belgilab chiqiladi: boost [V], ambitious [adj], sustainability [n]
4-bosqich: Kontrastiv tahlil	Talaba original va tarjima matnlar o'rtasidagi o'zgarishlarni aniqlaydi: <ul style="list-style-type: none"> – Semantik shift bormi? – Grammatik transformatsiya bormi? – Stilistik uslub saqlangani yoki o'zgargani?
5-bosqich: Tarjima qarorlarini muhokama qilish	Har bir shift va o'zgarish o'rganilib, nima uchun shunday tarjima tanlanganiga izoh beriladi.

9-jadval

Namunalar

<p>Gap-level alignment</p> <p>Asl matn: <i>"The government pledged to support renewable energy".</i></p> <p>Tarjima: <i>"Hukumat qayta tiklanuvchi energiyani qo'llab-quvvatlashga va'da berdi".</i></p> <p>Annotatsiya:</p> <ul style="list-style-type: none"> • <i>pledged [V] ↔ va'da berdi [V]</i> • <i>support [V] ↔ qo'llab-quvvatlash [V]</i> • <i>renewable energy [N] ↔ qayta tiklanuvchi energiya [N]</i> <p>Tahlil: <i>Semantik ekvivalentlik yuqori. Grammatik konstruktsiya parallel. Uslubiy moslik saqlangan.</i></p>

Yozma tarjimani o'qitishda har ikki guruhdagi metodlar bir-birini to'ldiruvchi va

mustahkamlovchi vosita sifatida qaralishi lozim. Kognitiv-metodologik yondashuvlar talabaniing tarjimonlik dunyoqarashini shakllantirsa, korpusga asoslangan metodlar tarjima qarorlarini empirik ma'lumot bilan mustahkamlaydi. Shunday qilib, integrativ yondashuv asosida tuzilgan o'quv jarayoni har tomonlama yetuk tarjimon kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har ikki turdagi metodlarning yakuniy qiyosiy jadvali sifatida quyidagi jadval berib o'tildi (10-jadvalga qarang):

10-jadval**Me'zonlar asosida tahlil**

Asosiy mezonlar	An'anaviy metodlar	Korpusga asoslangan metodlar
Didaktik yondashuv	Kognitiv, reflektiv, muammoli	Empirik, statistik, vizual
Talabalarning roli	Ijodkor-subyektiv tarjimon	Tahlilchi-kuzatuvchi tarjimon
Asosiy manba	Matn, topshiriq, muhokama	Korpus, ko'p misolli material
Ko'nikma turi	Strategik, stilistik, reflektiv	Leksik-semantik, chastotaviy, kol-lokatsion
Afzalliklari	Qaror qabul qilish, uslubiy erkinlik	Ma'lumot asosli, analitik va asoslangan tarjima sifatida izohlanadi.

Shu o'rinda, yozma tarjimani o'qitishda zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi didaktik yondashuvni transformatsiya qiladi, ya'ni talabaniing faqat natijaga emas, balki jarayonga e'tibor qaratgan holda tarjimonlik kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu integratsiya media vositalari, raqamli platformalar, korpuslar va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali amalga oshiriladi va bu esa shaxsga yo'naltirilgan, faol, reflektiv o'qitish modelini yaratadi.

Yozma tarjimani o'rgatish jarayoni bugungi kunda an'anaviy metodlardan zamonaviy raqamli, interaktiv, hamkorlikka asoslangan texnologiyalar tomonga jadal sur'atda o'zgarib bormoqda. Bu integratsiya orqali talabalar real tarjima muhiti, korpus manbalari, kompyuter yordamida tarjima (CAT) va sun'iy intellekt asosidagi vositalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi, masalan:

–korpus texnologiyalari orqali kontekstual tarjima variantlarini tanlash o'rgatiladi;

–Trados, Wordfast, MemoQ kabi CAT vositalari bilan tarjima loyihalari bajariladi;

–Moodle, Google Classroom orqali yozma topshiriqlar almashiladi va baholanadi;

–AI tarjima vositalari (DeepL, ChatGPT) orqali mashq va tahlil ishlari olib boriladi.

Ushbu jarayonlarni amaliy jihatdan asoslashda ta'lim texnologiyasi va pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Pedagogik texnologiya bu ta'lim va tarbiya jarayonini nazariy, metodik va amaliy asosda loyihalash, tashkil etish va boshqarish tizimi. Bu texnologiyada maqsad, mazmun, metod, shakl va vosita uzviy bog'liq. Yozma tarjima ta'limida bu texnologiya kompetensiyaviy yondashuv, muammoli o'qitish, va interaktiv strategiyalarni o'z ichiga oladi. Ta'lim texnologiyasi esa butun ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil qilish, monitoring qilish va natijalarni

baholashda foydalaniladigan yondashuvlar va texnik vositalar yig'indisidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yozma tarjima o'qitish bo'yicha zamonaviy metodlar va korpus lingvistikasi vositalarini uyg'unlashtirish orqali biz funktsional, strategik va stilistik jihatdan tayyor tarjimon shaxsini shakllantirishga erishamiz. Bu yondashuvlar tarjimani til kompetensiyasidan ustunroq – madaniyat, kontekst, analitika va raqamli savodxonlik bilan bog'laydi. Tarjima faoliyatining o'ziga xos jarayon tabiati va kontekstga bog'liqligi uni o'rgatishda ko'pkomponentli, moslashuvchan, empirik va reflektiv yondashuvlarni talab etadi. Demak, ta'lim muhitida yozma tarjimani samarali o'rgatish uchun an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy metodlar, korpus lingvistikasi va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash taqozo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdug'aniyeva, J. (2020). *Til OTMLar talabalarini ketma-ket tarjimaga o'rgatishning lingvodidaktik xususiyatlari* (Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.
2. Abdurakhmonova, N. (2018). Necessity Uzbek corpus for machine translation. In *Modern linguistics, translatology, linguodidactics: International conference* (pp. 120–122). Tashkent.
3. Abdurakhmonova, N. (2018). *Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti (sodda gaplar misolida)* (PhD dissertatsiyasi). Toshkent.
4. Abdurakhmonova, N. (2020). Creation lexical alignments for Uzbek–Russian parallel corpora. *Intellekt. Yazyk. Komp'yuter*, 19, 180–191.
5. Abdurakhmonova, N. (2020). Linguistic issues of creating parallel corpora for Uzbek multilingual machine translation system. *BuxDU ilmiy axborotnomasi*, 6, 60–68.
6. Anthony, L. (2005). AntConc: Design and development of a freeware corpus analysis toolkit for the technical writing classroom. In *IEEE International Professional Communication Conference Proceedings* (pp. 729–737).
7. Atwell, E. (2008). Development of tagsets for part-of-speech tagging. In *Corpus linguistics: An international handbook*. Berlin: Mouton de Gruyter.
8. Atwell, E. — correction: already above, ignore duplication (not in list). (keeping original list order)
9. Bakieva, G. Kh. (2012). *Uzbekskiy yazyk dlya stran SNG*. Moscow: MGLU.
10. Baranov, A. N., Mikhaylov, M. N., & Sidorov, G. O. (1998). “Dinamicheskiy korpus tekstov” kak novaya tekhnologiya prikladnoy lingvistiki. In *Trudy mezhdunarodnogo seminara “Dialog po komp'yuternoy lingvistike i ee prilozheniyam”* (Vol. 2).
11. Bruner, J. (1961). *The process of education*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
12. Corder, S. P. (1967). The significance of learners' errors. *International Review of Applied Linguistics*, 5(4), 161–170.
13. Dolet, É. (1540). *La manière de bien traduire d'une langue en autre*. Lyon: Etienne Dolet.
14. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford: Oxford University Press.
15. Erkaev, E. (2008). *Bo'lajak chet tili muallimi ta'limida qo'llanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi* (Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi). Toshkent.
16. Fayzullaeva, R. (1972). *K probleme peredachi natsional'nogo kolorita v khudozhestvennom perevode* (Kandidat filologicheskikh nauk dissertatsiyasi). Toshkent.
17. Gile, D. (1995). *Basic concepts and models for interpreter and translator training*. Amsterdam: John Benjamins.

18. G'ofurov, I. (2008). *Tarjimon mutaxassisligiga kirish*. Toshkent: Mehridaryo.
19. Hatim, B., & Mason, I. (1990). *Discourse and the translator*. London: Longman.
20. Hamroeva, Sh. (2018). *O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari* (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). Qarshi.
21. James, C. (1998). *Errors in language learning and use: Exploring error analysis*. London: Longman.
22. Jalolov, J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent.
23. Kubedinova, E. (2022). *Og'zaki tarjimaga o'qitish tizimida multimediya majmuasi* (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.
24. Muminov, O. (2008). *History of translation (Europe and Central Asia)*. Toshkent: Mehridaryo.
25. Muminov, O. (2013). *A guide to consecutive translation*. Toshkent: Tafakkur bo'stoni.
26. Musaev, Q. (1967). *Stilisticheskie voprosy khudozhestvennogo perevoda s angliyskogo yazyka na uzbekskiy* (Avtoreferat kandidat filologicheskikh nauk). Samarqand.
27. Nord, C. (1997). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained*. Manchester: St. Jerome.
28. Parshin, A. N. (2000). *Osnovy teorii i praktiki perevoda*. Saratov: SGU.
29. Po'latov, Yu. (1967). *Badiiy asarda nomlar tarjimasi*. Toshkent: Fan.
30. Qambarov, N. (2014). *Inglizcha–o'zbekcha universal lug'at-ma'lumotnoma*. Toshkent.
31. Rashidova, F. M. (2017). *Sovershenstvovanie kontseptual'no-metodicheskikh osnov vnedreniya v sistemu nepreryvnogo obrazovaniya Uzbekistana* (Doktor pedagogicheskikh nauk dissertatsiyasi). Toshkent.
32. Salomov, G'. (1966). *Til va tarjima*. Toshkent.
33. Salomov, G'. (1978). *Tarjima nazariyasiga kirish*. Toshkent: O'qituvchi.
34. Salomov, G'. (1980). *Adabiy an'ana va badiiy tarjima*. Toshkent: Fan.
35. Salomov, G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
36. Salomov, G'. (1983). *Tarjima tashvishlari*. Toshkent.
37. Sattarov, T. K. (2000). *Formirovanie professional'nykh umeniy budushchego uchitelya inostrannogo yazyka* (Avtoreferat doktor pedagogicheskikh nauk). Toshkent.
38. Sedov, A. V. (2013). *Matematicheskie modeli, metody i algoritmy postroeniya razmechennykh korpusov tekstov* (Avtoreferat kandidat tekhnicheskikh nauk). Petrozavodsk.
39. Tuxtasinov, I. (2018). *Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish* (Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.
40. Tytler, A. F. (1907). *Essay on the principles of translation* (1st ed. 1791). London: J. M. Dent & Sons.
41. Yo'ldoshev, U. R. (2024). *Talabalarga badiiy tarjimani o'qitishning lingvistik va metodik asoslari* (Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi). Toshkent.

REFERENCES

1. Abduganieva, J. (2020). *Linguodidactic features of teaching consecutive interpreting to students of language higher education institutions* (PhD dissertation abstract in Pedagogical Sciences). Tashkent.
2. Abdurakhmonova, N. (2018). *Linguistic support of an English–Uzbek translation program (based on simple sentences)* (PhD dissertation). Tashkent.
3. Abdurakhmonova, N. (2018). The necessity of an Uzbek corpus for machine translation. In *Modern linguistics, translatology, and linguodidactics: International conference proceedings* (pp. 120–122). Tashkent.
4. Abdurakhmonova, N. (2020). Creation of lexical alignments for Uzbek–Russian parallel corpora. *Intellect. Language. Computer*, 19, 180–191.
5. Abdurakhmonova, N. (2020). Linguistic issues in creating parallel corpora for an Uzbek multilingual machine translation system. *Scientific Bulletin of Bukhara State University*, 6,

- 60–68.
6. Anthony, L. (2005). AntConc: Design and development of a freeware corpus analysis toolkit for the technical writing classroom. In *Proceedings of the IEEE International Professional Communication Conference* (pp. 729–737).
 7. Atwell, E. (2008). Development of tagsets for part-of-speech tagging. In *Corpus linguistics: An international handbook*. Berlin: Mouton de Gruyter.
 8. Bakieva, G. Kh. (2012). *The Uzbek language for CIS countries*. Moscow: Moscow State Linguistic University.
 9. Baranov, A. N., Mikhailov, M. N., & Sidorov, G. O. (1998). The “dynamic text corpus” as a new technology in applied linguistics. In *Proceedings of the international seminar “Dialogue on computational linguistics and its applications”* (Vol. 2).
 10. Bruner, J. (1961). *The process of education*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
 11. Corder, S. P. (1967). The significance of learners’ errors. *International Review of Applied Linguistics*, 5(4), 161–170.
 12. Dolet, É. (1540). *The proper way of translating from one language into another*. Lyon: Etienne Dolet.
 13. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford: Oxford University Press.
 14. Erkaev, E. (2008). *A linguodidactic classification of translation exercises used in the training of future foreign language teachers* (PhD dissertation in Pedagogical Sciences). Tashkent.
 15. Fayzullaeva, R. (1972). *On the problem of conveying national color in literary translation* (Candidate of Philological Sciences dissertation). Tashkent.
 16. G’ofurov, I. (2008). *Introduction to the translator profession*. Tashkent: Mehridaryo.
 17. Gile, D. (1995). *Basic concepts and models for interpreter and translator training*. Amsterdam: John Benjamins.
 18. Hamroeva, Sh. (2018). *Linguistic foundations of compiling an author corpus of the Uzbek language* (PhD dissertation abstract). Qarshi.
 19. Hatim, B., & Mason, I. (1990). *Discourse and the translator*. London: Longman.
 20. Jalolov, J. (2012). *Methods of foreign language teaching*. Tashkent.
 21. James, C. (1998). *Errors in language learning and use: Exploring error analysis*. London: Longman.
 22. Kubedinova, E. (2022). *A multimedia complex in the system of training for oral interpreting* (PhD dissertation abstract). Tashkent.
 23. Muminov, O. (2008). *History of translation (Europe and Central Asia)*. Tashkent: Mehridaryo.
 24. Muminov, O. (2013). *A guide to consecutive interpreting*. Tashkent: Tafakkur Bo’stoni.
 25. Musaev, Q. (1967). *Stylistic issues of literary translation from English into Uzbek* (Candidate of Philological Sciences dissertation abstract). Samarkand.
 26. Nord, C. (1997). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained*. Manchester: St. Jerome.
 27. Parshin, A. N. (2000). *Fundamentals of translation theory and practice*. Saratov: Saratov State University.
 28. Polatov, Y. (1967). *Translation of proper names in literary works*. Tashkent: Fan.
 29. Qambarov, N. (2014). *English–Uzbek universal dictionary and reference book*. Tashkent.
 30. Rashidova, F. M. (2017). *Improving the conceptual and methodological foundations for implementation in the system of continuous education of Uzbekistan* (Doctor of Pedagogical Sciences dissertation). Tashkent.
 31. Salomov, G. (1966). *Language and translation*. Tashkent.
 32. Salomov, G. (1978). *Introduction to translation theory*. Tashkent: O’qituvchi.
 33. Salomov, G. (1980). *Literary tradition and literary translation*. Tashkent: Fan.
 34. Salomov, G. (1983). *Foundations of translation theory*. Tashkent: O’qituvchi.
 35. Salomov, G. (1983). *Translation concerns*. Tashkent.

36. Sattarov, T.K. (2000). *Formation of professional skills of the future foreign language teacher* (Doctor of Pedagogical Sciences dissertation abstract). Tashkent.
37. Sedov, A. V. (2013). *Mathematical models, methods, and algorithms for constructing annotated text corpora* (Candidate of Technical Sciences dissertation abstract). Petrozavodsk.
38. Tuxtasinov, I. (2018). *Developing professional competencies in translator training based on the phenomenon of equivalence* (Doctor of Pedagogical Sciences dissertation abstract). Tashkent.
39. Tytler, A. F. (1907). *Essay on the principles of translation* (Original work published 1791). London: J. M. Dent & Sons.
40. Yoldoshev, U. R. (2024). *Linguistic and methodological foundations of teaching literary translation to students* (Doctor of Pedagogical Sciences dissertation). Tashkent.